

Maktabdagi uchrashuv

2021-yil 4-mart kuni "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti professor-o'qituvchilari va Toshkent shahri Yunusobod tumani 271-sonli umumta'lim maktabi bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Maktab o'quvchilariga institutning videoroligi ko'rsatildi va institutda tayyorlanayotgan ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari haqida ma'lumotlar berildi.



Mehmonlarga institut axborot-resurs markazi, madaniyat saroyi, sport inshootlari ko'rsatildi. 271-sonli maktab o'qituvchilari va bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun imtiyozlarga ega bo'lgan ingliz tilini chuqr o'rghanish kurslari tashkil etilishi bo'yicha dastlabki kelishuvlar amalga oshirildi.



Uchrashuv qiziqarli, savol javoblarga boy bo'lib, o'quvchilar tomonidan institutda talabalarni bilim olishi uchun yaratilgan sharoitlar, institutning xalqaro aloqalari to'g'risida ko'plab savollar berishdi.

TIQXMMI matbuot xizmati